

Мусодара жазо тури сифатида белгиланган ҳолларда, мазкур жазо, асосан, бундай мусодара қилишга олиб келадиган жиноят учун шахснинг судланганлигига қўшимча равишда қўлланилади ҳамда шахснинг бундай жиноятни содир этганликда айбдор деб топилиши ушбу жиноятга алоқадор мол-мулкнинг ҳам жиноий фаолият билан боғлиқлиги ҳақида етарли далил бўлиб хизмат қилади.

Эътиборга молик жиҳати шундаки, махсус мусодара, яъни жиноят қуроллари, содир этиш воситалари ва жиноий даромадларни мусодара қилиш, одатда, уларнинг маълум бир жиноий ҳаракат билан боғлиқ эмаслигини исботлаш мажбуриятининг айблов тарафида эканлигини назарда тутати.

Жиноий тартибда мусодара қилиш ёки фуқаролик мусодара қилиш ҳақида гап кетганда, аксарият ҳолларда исботлаш мажбурияти томонлар ўртасида тақсимланади ва исботлашнинг соддалаштирилган стандартлари қўлланилади: далилларнинг устунлиги, эҳтимоллар нисбати, юқори эҳтимоллик ёки уларнинг ўхшашлари. Айрим давлатларда, шу жумладан, Озарбайжон, Арманистон, Қозоғистон, Қирғизистон ва Латвия қонунчилигида кенгайтирилган жиноий мусодара ҳамда фуқаролик тартибидаги мусодара институтларига ўрин ажратилмаган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Неъматов, Ж. "Уголовно-правовые проблемы борьбы с организованной преступностью по законодательству Республики Узбекистан." Российская юстиция 8 (2006): 64-66.

A.ABDUSALIMOV¹, M.KADIROVA^{224 225}

JINOYAT ISHLARINING SUDDA KO'RILISHIDA DALILLARNI BEVOSITA VA OG'ZAKI USULDA TEKSHIRISH

ЖПК 22-moddasida ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat qonunda nazarda tutilgan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan foydalanish mumkinligiga qaratilgan. Bu esa isbot qilishning to'g'ri tashkil etilishi bilan bog'liq. Isbot qilish bir maqsadga, ya'ni u ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Buning uchun

²²⁴ Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

²²⁵ Тошкент давлат юридик университети доценти, юридик фанлар номзоди

esa ish holatlarini tekshirish to'la, holisona va har tomonlama bodishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun tergov yuritilayotgan va sud tomonidan ko'rilayotgan har bir ish bo'yicha ish holatlari yuzasidan tekshirilayotgan faktlar bo'yicha ehtimol tutilgan barcha holatlar aniqlanishi va tekshirilishi shart. Ish bo'yicha darrov paydo bo'lgan va ko'proq ishonchga sazovor bo'lgan gumonga asoslangan xulosaga kelish mumkin emas. Bu shuni bildiradiki, tekshirilishi lozim bo'lgan faktlar yuzasidan ish holatlari bo'yicha turli muayyan variantlar, ehtimollarni ilgari surish kerakki, bu variantlarning har birini tekshirish, tasdiqlanmaganidan voz kechish, tasdig'ini topgan ehtimolni qabul qilish mumkin bo'lsin.

Dalillarni tekshirishda bevositalik dalillarni taqdim etish va ularni birinchi manbalar orqali o'rganishning majburiy sharti hisoblanadi. M.I.Kazarinaga ko'ra, bu qoida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga "ikkilamchi" dalillardan xolos bo'lish imkonini beradi²²⁶ va ularni vositachilar orqali emas, to'g'ridan to'g'ri o'rganish imkoni yuzaga keladi. L.V.Golovkoga ko'ra, sudda dalillarni tekshirishning bevositalagi bir qancha qoidalarda o'z aksini topgan²²⁷:

- Sudyaning qarori faqat sudda o'rganilgan dalillarga asoslanishi kerak;

- Sudya biror protsessual harakatlarni o'tkazishni boshqa sudyaga topshirishga haqli emas;

- Sudya ishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lmay qolgan taqdirda va sudya almashadigan bo'lsa, ishni ko'rishga yangi kirishgan sudya uchun sud muhokamasi yangitdan boshlanadi. Mazkur qoidalar biz o'rganayotgan prinsipning to'laqonli ishlashiga xizmat qiladi va bu qoidalarning buzilishi prinsipning to'g'ridan to'g'ri buzilishiga olib keladi. Agar sudya sud tergovida dalillarni tekshirib bo'lgach, hukmda umuman boshqa dalillarga asoslanib jazo tayinlaydigan bo'lsa, mazkur holat sudyaning hukm taqdirini alohida xona yoki maslahatxonaga kirishidan avval hal qilib bo'linganini anglatadi.

O.M.Madaliyev sud bosqichida tergov o'tkazilishidan maqsad dastlabki tergovdan kelgan dalillarni o'rganib chiqish emas, sud tergovi

²²⁶ Kazarina M.I. Problembi neposredstvennogo issledovaniya dokazatelstv sudyey po ugolovnomu delu // Sibirskiye ugolovno-protsessualnye i kriminalisticheskiye chteniya. 2019. №4 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-neposredstvennogo-issledovaniya-dokazatelstv-sudiey-po-ugolovnomu-delu>

²²⁷ Golovko L.V. Kurs ugolovnogo processa [The course of the criminal process]. Mossow, Statut Publ., 2017. 1280 p. <https://cyberleninka.ru/>

ishtirokchilari, shuningdek bevosita sudning tashabbusi bilan to'plangan dalillarni ham tekshirib chiqib, real haqiqatni aniqlash imkoniyatini yaratishdan iboratligini ta'kidlagan¹. Xuddi shu fikrni F.Malikov ham bildirib o'tgan^{228 229}. S.M.Kazning fikricha, dalillarni tekshirish deganda ish bo'yicha faktik holatlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish tushuniladi. Boshqacha aytganda, dalillarni tekshirish ularni o'rganish, tahlil qilish va ularni ishning boshqa materiallari bilan solishtirish ekanligini aytib o'tgan²³⁰. A.A.Vasyayev esa dalillarni tekshirishni jinoyat ishi faktik holatlarining mazmunini bilish, ularning ishonchliligini tekshirishda tushunishini ta'kidlagan²³¹. Mazkur fikrlar orqali olimlar dalillarni tekshirishning mezonlarini aniqlashtirishga harakat qilishgan. Umuman olganda, dalillarni har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish tortishuv prinsipining to'la qonli ishlashi bilan bog'liq. Bu masala ayniqsa ishni sudda ko'rish bosqichida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Jinoyat ishi materiallarini sudda tekshirish davomida sudyaning asosiy vazifalaridan biri tomonlarning tortishuvi uchun ularga qulay shart-sharoit yaratib berish hisoblanadi. Shu orqali sud ishdagi noaniqlik va mavxum holatlarga nisbatan oson aniqlik kiritadi. Tomonlar o'zlarining faolliklarini namoyish qilib, zarur dalillarni sudga taqdim etadi yoki mavjud ish hujjatlari ichidan ayni kerakli qismiga sudyaning e'tiborini qaratishni so'raydi. Tortishuv prinsipini jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash vositasi sifatida talqin qiladigan bo'lsak, bunda sud ishni ko'rish jarayonida faol ishtirokchi bo'lishi kerak, u o'z vakolati doirasida zaruratga qarab dalillarni to'plashi va barcha jinoyat ishi materiallarini bevosita tekshirib chiqishi kerak bo'ladi. Jinoyat ishlarini sudda ko'rish tahlili shuni ko'rsatadiki, dalillarni bevosita tekshirish bilan bog'liq normalarni qo'llashda sudlar har doim ham ularning mag'zini, qonun chiqaruvchining nimaga ishora qilayotganini tushunayotgani yo'q. Shulardan kelib chiqib, JPKning 26-moddasida quyidagi qoida aks etishi lozim, deb hisoblaymiz: *dastlabki tergov, surishtiruv va sud muhokamasi*

²²⁸ Jinoyat protsessi. Maxsus qism. Darslik. Z.F.Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida. - Toshkent: TDYUI, 2006. -B. 181.

²²⁹ Malikov F. T. Birinchi instansiya sudida sud tergovini takomillashtirish masalalari //Jurnal pravovbix issledovaniy. - 2020. - T. 5. - №. 7.

²³⁰ Mixaylov A.A. Prinsip neposredstvennosti kak metod issledovaniya dokazatelstv v sudebnom razbiratelstve ugovnbix del // Ugolovnaya yustitsiya. 2018. №11. -S.4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-neposredstvennosti-kak-metod-issledovaniya-dokazatelstv-v-sudebnom-razbiratelstve-ugolovnyh-del>

²³¹ Vasyaev, A.A. (2016) Teoriya issledovaniya dokazatel'stv v rossiyskom ugolovnom protsesse [Theory of evidence research in the Russian criminal procedure]. Moscow: Yurлитinform.

jarayonida jinoyat ishiga doir barcha dalillar ushbu kodeksda o‘rnatilgan tartibda bevosita o‘rganilishi shart.

JPK 87-moddasi 2-qismida isbot qilishda dalillarni to‘plashda himoyachi ham nazarda tutilgan. Lekin, JPK 81-moddasi 1-qismida dalil bo‘lib hisoblanadigan ma’lumotlarni aniqlovchi shaxslar tarkibida himoyachi ko‘rsatib o‘tilmagan, ushbu moddaning 2-qismida sanab o‘tilgan ma’lumotlar tarkibiga himoyachi tomonidan to‘planadigan ma’lumotlar kiritilmagan, mazkur normada keltirilgan “boshqa hujjatlar” ning aniq ta’rifi berilmagan.

Ishda himoyachi tomonidan ma’lumotnoma, tavsifnoma, tushuntirish va boshqa hujjatlarni olish orqali to‘planadigan dalillar JPKda dalillar turlari tarkibida ko‘rsatilmaganligi holatini bartaraf etish uchun himoyachining dalillarni to‘plash huquqiga ega ekanligidan kelib chiqib, JPKning 81- moddasiga tegishli tartibda o‘zgartirish kiritib, himoyachi tomonidan to‘planib, taqdim etiladigan dalillarni dalillar turlariga va dalillar manbalariga kiritish zarurligi, himoyachi tomonidan dalil to‘plash maqsadida shaxslardan tushuntirishlar olish va so‘rovdan o‘tkazish harakatlarini dalillar to‘plash usullari sifatida JPKning 87-moddasi 1-qismiga kiritish zarur, deb hisoblaymiz.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra, himoyachi tomonidan berilgan ma’lumotlarni ishga qo‘shish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni qanoatlantirish va dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash vakolatlari faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, himoyachi haligacha dalillarni mustaqil to‘plash huquqiga ega emas. K.Ishniyazov ta’kidlaganidek, gumon qilinuvchining himoyachiga ega bo‘lish huquqini to‘la, xolisona amalga oshirishning eng samarali usullaridan biri - qonunchilikda himoyachiga yangi vakolatlar berilishidir¹, protsessualist olim fikricha, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida “advokatlik tergov”ni qonunchilikka kiritish lozim va advokatga guvohlarni so‘roq qilish kabi qo‘shimcha vakolatlar berilishi kerak hamda u ishga tergovga qadar tekshiruv vaqtidan, jinoyat haqida ariza va xabarlar kelib tushgan vaqtdan boshlab ishtirok etishi lozim. Jinoyat ishini yuritishning barcha bosqichlarida gumon qilinuvchi huquqlarining kafolatlash uchun u protsessning dastlabki bosqichlaridanoq, agar uning harakatlanish erkinligi cheklangan taqdirda ushlangan vaqtdan boshlab himoya huquqi bilan ta’minlanishi lozim. Bu huquqning mavjudligi gumon qilinuvchining o‘ziga nisbatan jinoiy ta’qibdan qonunda nazarda tutilgan barcha vositalardan foydalangan holda himoyalani imkonini beradi. JPKning 87-moddasi 2-qismiga ko‘ra

himoyachi dalillarni to'plashga haqli bo'lib, ular jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi va ishni yuritishga mas'ul shaxslar tomonidan majburiy baholanishi lozim. Ammo JPKning biror normasida tergov va sud harakatlarini yuritish yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda advokatlarga vakolat berilmagan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasida belgilangan qoidani ham inobatga olish zarur. D.M.Yambayevaga ko'ra, so'rov, ma'lumotlarni va boshqa hujjatlarni talab qilib olish, shuningdek himoyachi tomonidan predmetlar, hujjatlar va boshqa ma'lumotlarning qo'lga kiritilishi faqatgina himoyachining ma'lumotlarni qo'lga kiritish usuli hisoblanadi. Vaholanki, ular isbot qilish subyekti tomonidan protsessual sohaga kiritilganidan keyingina dalil bo'lib qolishlari mumkin^{232 233}. Xuddi shung o'xshash fikrni E.Norbo'tayev ham bildirib o'tgan, ya'ni uningcha dalillarni to'plash, tekshirish va baholash surishtiruvchi, tergovchi va sudning bevosita vakolat doirasini tashkil qilsa, endilikda dalillarni to'plash imkonidan himoyachi foydalanishi mumkinligini, ammo mazmun va shakl jihatidan himoyachi amalga oshiradigan harakatlar dalillarni to'plashga doir talabga javob bermaydi. D. M.Choriyevaga ko'ra, advokatlik so'rovi vaqtida ham yolg'on guvohlik berganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash zarur. Bu jihatdan qonunchiligimizni anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi mamlakatlar qonunchiligi bilan solishtirib bo'lmaydi. Masalan, AQSHda himoyachining quyidagi huquqlari mavjud: shaxs ushlangan vaqtdan boshlab ishda qatnashish; suroq o'tkazilgunga qadar va tergov davomida himoyasi ostidagi shaxs bilan maslahatlashish; jinoyat ishi materiallari bilan tanishish; dalillarni taqdim etish bilan bog'liq iltimosnomalar qilish. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, isbot qilish majburiyati yuklatilgan subyektlar uchun dalillar to'plashda yetarlicha vakolat berilgan bo'lib, ularni himoyachining vakolatlari bilan solishtirib bodmaydi. Bu esa tergov organlarining jinoyatlarni tergov qilish jarayonida himoyachiga nisbatan yaqqol ustunlikka egaligidan dalolat beradi. Shuning uchun gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga ishonchli himoyani kafolatlash uchun himoyachining vakolatlarini kengaytirish

²³² Yambayeva D.M. Uchastie zashchitnika v sobiranii dokazatelstv na stadii predvaritelnogo

rassledovaniya: avtoref. dis. . .kand. yurid. nauk. Vladimir, 2008. -C.8.

<https://www.dissercat.com/content/uchastie-zashchitnika-v-sobiranii-dokazatelstv-na-stadii-predvaritelnogo-rassledovaniya>

²³³ Мавланов К. Жиноят ишлари юритувида гумон қилинувчига нисбатан қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш //Общество и инновации. - 2021. - Т. 2. - №. 12/S. - С. 265-269.

zarur, masalan muayyan tergov harakatini o'tkazishni so'rab tergov organlariga iltimosnoma kiritish huquqini berish zarur. Bu borada Estoniyadan namuna olish mumkin. Mazkur davlat qonunchiligiga ko'ra advokat tergov yakunida prokurorning ayblov hujjatidan nusxa olgandan boshlab uch kun ichida sudga himoya hujjatini, prokuraturaga esa uning nusxasini yuborish vakolatiga ega.

JPKda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud dalillarni bevosita tekshirishlari kerakligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilishlari, ekspert xulosalarini eshitishlari, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishlari, bayonnoma va boshqa hujjatlarni o'qib eshittirishlari shartligi belgilangan. Bundan ko'rinadiki, ekspertiza xulosasi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlari kabi eshitalishi kerak, tergov harakatlari bayonnomalari kabi o'qib eshittirilishi kerak emas. Shu normada bir biriga mazmunan va shaklan juda o'xshash so'zlar qodlanilgan bo'lib, bir o'qishda e'tiborni tortmaydi. Eshittirish - bu ma'lumotni barchaning e'tiboriga yetkazish demakdir. Bundan xulosa shu bodadiki, ekspertiza xulosasi eksperti tomonidan o'qib eshittiriladi. Sud amaliyotida ekspertiza xulosalarini sudyalarning o'zlari o'qib beradi, ko'pincha ekspertlar ham so'roq qilinmaydi. Bu holat esa dalillarni bevosita usulda tekshirish prinsipini chetlab o'tadi va tortishuv prinsipiga zid hisoblanadi. Chunki ekspertiza xulosasi ayblovchi yoki oqlovchi dalillar bo'lib, sud xolis taraf sifatida ishda faqat hal qilish vazifasini bajarishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil

23-maydagi "Sud hukmi to'g'risida"gi qarorining 2-bandidagi ham odil sudlovni taraflarning o'zaro tortishuvi, dalillarning bevosita va og'zaki usulda tekshirilishi asosida olib borilishi va ish bo'yicha haqiqiy holatni aniqlash to'g'risidagi jinoyat protsessining muhim prinsiplariga amal qilishlari lozimligi, ushbu prinsiplardan har qanday asoslarga ko'ra cheklanish hukmni qonuniy emas, deb topishga asos bo'lishi ko'rsatilgan. Mazkur hujjat ham yuqorida tahlil qilingan masalaning jiddiy ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jinoyatlarni ochish amaliyotida bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Jumladan, jinoyat sodir etilgan hudud atrofida fuqarolar bilan yetarlicha so'rov suhbatlari tashkil etilmaydi, ochish chora-tadbirlarini tashkil qilishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yiladi, xususan tadbirlar pala-partish, tartibsiz olib boriladi. Bu holat jinoyatni issiq izidan fosh etish imkoniyatlarini yo'qqa chiqaradi.

Qolaversa, jinoyatni fosh etishda ilmiy yutuqlar, ekspertlarning imkoniyatlari va texnologiyalardan yetarli foydalanilmaydi. Masalan, fonoskopik ekspertizalar ovoz va tovushlar bo'yicha o'tkaziladi. Ammo, masalan, talonchilik jinoyatlarini ochishda bunday ekspertiza bir marta ham tayinlanmagan, mas'ullar tomonidan bu borada tegishli choralar ko'rilmagan. Yoki, portret ekspertizasi o'tkazilishini ham ko'pchilik xodimlar bilmaydi, binobarin, amalda undan foydalanilmaydi. Shuningdek, talonchi voqea joyida o'zining yozuvlari aks etgan qog'ozni tushirib qoldirgan bo'lsa, matnning yozilishiga e'tibor berish kerak. Zero, matnning tuzilishi va mazmuniga qarab uni yozgan shaxsning ruhiy holati va ma'lumot darajasini aniqlash mumkin. Yoxud, jinoyatchining kiyim-kechagi, buyumlari va boshqa joylarda tushirib qoldirishi mumkin bo'lgan mikrozararlarni olib, uni topishda, qolaversa, jinoyatni isbotlashda dalil sifatida ishlatish mumkin. Biroq, amalda ushbulardan foydalanishmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жасур, Н. Е. Ё. М. А. Т. О. В., and Феруза СИДИКОВА. "ЖИНОЙИ ИШЛАР БЎЙИЧА СУД ЖАРАЁНИДА СЎРОҚ ҚИЛИШ УСЛУБИЯТИНИНГ МАҚСАДИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ." ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ 1.1 (2020): 95-103.

I. H.MARDANOVA ¹, A. Y.TAJIBAEVA^{234 235}

**YANGI OCHILGAN HOLATLAR TUFAYLI JINOYAT ISHINI
QAYTA BOSHLASH UCHUN MUDDATLAR XORIJ
TAJRIBASIDA**

Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, shuningdek himoyachilar va vakillar (ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar) davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining passiv obyektlari emas, balki tegishli huquq va burchlarga ega bo'lgan huquq subyektlaridir. Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash sabablari, asoslari va tartibiga ko'ra Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni

²³⁴ Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

²³⁵ Toshkent davlat yuridik universitetining Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchisi